

«TASDIQLANGAN»
Universitet Kengashining
2023-yil ____ yanvardagi
_____-sonli qarori asosida
Kengash raisi, rektor
_____ prof. Sh.Sharipov
«____» _____ 2023-yil

**Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi Talabalar akademiyasi
to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi Talabalar akademiyasi (keyingi o‘rinlarda Talabalar akademiyasi deb ataladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2. Talabalar akademiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlariga hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

1.3. Talabalar akademiyasi o‘z faoliyatida Jizzax davlat pedagogika universitetiga (keyingi o‘rinlarda universitet deb ataladi) hisobot beradi va bo‘ysunadi.

1.4. Talabalar akademiyasi yuridik shaxs maqomisiz faoliyat yuritadi.

1.5. Talabalar akademiyasi rasmiy nomi – Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi Talabalar akademiyasi.

1.6. Talabalar akademiyasining doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organi Talabalar akademiyasi Kengashi (bundan keyin Kengash) hisoblanadi. Kengash jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

1.7. Talabalar akademiyasiga o‘zlarining innovatsion loyihalari va g‘oyalariga ega iqtidorli talabalar va magistranlar tanlov asosida qabul qilinadi. Talabalar akademiyasi jamoa a’zolari Talabalar akademiyasi a’zolari hisoblanadi.

2-bob. Talabalar akademiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari

2.1. Quyidagilar Talabalar akademiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish;

ilmiy-tadqiqotlarni bajarish ishtyoqiga ega iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borishlariga imkon yaratish, yangi avlod yosh olimlarini tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

yoshlar tomonidan aniq vazifalarni hal etishga, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan ilg‘or texnologik ishlanmalarini ishlab chiqishga qulay sharoitlar yaratish;

turli tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o‘rnatish, ularning olimlari va mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, treninglar, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiylar, seminarlar va tanlovlardan o‘tkazish;

2.2. Talabalar akademiyasi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) *iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish:*

iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish bo‘yicha onlayn platformani (keyingi o‘rinlarda elektron baza deb ataladi) yuritadi;

iqtidorli va tashabbuskor yoshlarning g‘oyalari va startap loyihamonlari elektron baza orqali qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

respublika va universitet miqyosidagi tanlovlarga hujjatlarni qabul qilish elektron platforma orqali amalga oshiriladi;

universitet ko‘magida ta’lim yo‘nalishlaridagi faol yoshlarni innovatsion loyihalari hamda ilm-fan sohasi va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha bergen taklif va tavsiyalarini o‘rganish asosida iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni Talabalar akademiyasi a’zoligiga jalb etadi;

b) *ilmiy tadqiqotlarni bajarish ishtyoqiga ega iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borishlariga imkon yaratish, yangi avlod yosh olimlarini tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish sohasida:*

ilmiy tadqiqotlarni bajarish ishtyoqiga ega iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘radi, ularni universitet va ilmiy tashkilotlarning laboratoriya bazasidan foydalanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratadi;

iqtidorli yoshlarni ilmiy-axborot resurslaridan foydalanish uchun zarur shart-sharoit yaratish bo‘yicha amaliy choralarini ko‘radi;

iqtidorli va tashabbuskor yoshlarning amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borishlari uchun imkon yaratish maqsadida loyihalarni shakllantirishga

ko‘maklashadi, olim va mutaxassislar ishtirokida loyihalarni rasmiylashtirish, biznes rejalarini tayyorlash bo‘yicha treninglar o‘tkazadi;

ilmiy tadqiqotlarni bajarish ishtiyoqiga ega iqtidorli yoshlarni yetakchi olimlarga biriktirish va ilmiy maktablarning mustahkam bazasini shakllantirish asosida yangi avlod yosh olimlarini tayyorlashga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshiradi;

c) iqtidorli yoshlar tomonidan aniq vazifalarni hal etishga, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan ilg‘or texnologik ishlanmalarni yaratishga qulay sharoitlar yaratish sohasida:

universitet ko‘magida iqtidorli yoshlarni ta’lim tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini o‘rganishga jalb etadi, soha tarmoqlarida ilg‘or texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash bo‘yicha tizimli ishlarni olib boradi;

ilmiy ishlanmalarning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta’minalash maqsadida iqtidorli va tashabbuskor yoshlarga patentlash, ilmiy ishlanmalarni baholash va sertifikatlashtirishda amaliy yordam ko‘rsatadi;

iqtidorli va tashabbuskor yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan ilg‘or texnologik ishlanmalar asosida tajriba namunalarini yaratish va tayyor mahsulot bosqichiga olib chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minalaydi;

yoshlarning startap loyihalarini zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo‘naltiradi;

xo‘jalik va davlat ulushi mavjud korxonalar muammolarini o‘rganish bo‘yicha sayyor tashriflarni tashkil etishni tashkillashtiradi;

korxonalarda mavjud muammolar muhokamasi yuzasidan davra suhbatlarini o‘tkazishda va yechimi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy yordam ko‘rsatadi;

tijoratlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan startap loyihalar shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minalaydi;

d) turli tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o‘rnatish, ularning olimlari va mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, treninglar, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiylar, seminarlar va tanlovlardan o‘tkazish:

yangi, istiqbolli yo‘nalishlar (sun‘iy intellekt, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, robototexnika va mexatronika, bitexnologiya, dasturlash, 3D modellash)ni rivojlantirish maqsadida sohaning yetakchi olimlari va malakali mutaxassislari ishtirokida yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishga ko‘maklashadi;

universitet ko‘magida turli tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o‘rnatadi va iqtidorli yoshlarning ilmiy ishlanmalarini ilmiy-innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiya, forum, seminar va tanlovlardan o‘tkazadi;

buyurtma asosida nufuzli ilmiy markazlardan yetakchi olimlar va mutaxassislar ishtirokida mahorat darslari, trening va seminarlar o‘tkazadi;

mahalliy tashkilot, universitet va ilmiy markazlardan olim va mutaxassislarning, Talabalar akademiyasi barcha a’zolarining hamda iqtidorli yoshlarning ilmiy nashrlarini chop etish, ilmiy ma’ruzalarini tayyorlash va namoyish etishga tayyorlashda hamkorlik qilishga jalgan etadi;

Talabalar akademiyasi a’zolarining ilmiy maqolalarini universitetda iqtidorli talabalar uchun tashkil qilingan “Tadqiqot olami” elektron jurnalida chop etib boriladi.

3-bob. Talabalar akademiyasi Kengashi

3.1. Kengash tarkibi:

Kengash tarkibi universitet rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Rektor, prorektorlar, iqtidorli talabalar ilmiy faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i lavozimiga ko‘ra Kengash tarkibiga kiradi. Shuningdek, Talabalar akademiyasi vitse-prezidentlari ham bir vaqtning o‘zida Kengash a’zosi hisoblanadi.

Universitet rektori Talabalar akademiyasi Kengashi raisi sanaladi. Iqtidorli talabalar ilmiy faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i Kengash kotibi hisoblanadi.

Kengash Raisining vazifalari:

Kengash ishiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

Kengashning yillik ish rejasini, qarorlarini tasdiqlaydi;

Kengash yig‘ilishlarida raislik qiladi va zaruratga ko‘ra navbatdan tashqari yig‘ilishchaqiradi;

Kengash qarorlari ijrosi ustidan umumiy nazorat olib boradi.

Talabalar akademiyasi a’zolariga instruktor-pedagoglar biriktiradi.

Kengash kotibining vazifalari:

Kengashning yillik ish rejasini tuzish;

Kengash yig‘ilishini tayyorlash;

kun tartibiga kiritilgan masalalar bo‘yicha materiallarni to‘plash;

Kengash majlislari boshlanishidan oldin qatnashchilarni ro‘yxatga olishni tashkil etish. Ro‘yxatga olish yakunlanishi bilan Kengash raisiga Kengash a’zolari va taklif etilganlarning ishtiroki haqida axborot berish;

Kengash yig‘ilishi bayonnomalarini yuritish;

o‘quv yili yakunlariga ko‘ra Kengash ish rejasining bajarilishi bo‘yicha hisobot tayyorlash;

Kengash a’zosining huquq va majburiyatları

Kengash a’zosi:

Kengash kun tartibiga masalalarni kiritish bo‘yicha taklif berish;

Kengash yig‘ilishida muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildirish, taklif kiritish;

Kengash tomonidan tuziladigan komissiya, ishchi guruh va boshqalarga saylash va saylanish;

Kengash qabul qilayotgan qarorlarga munosabat bildirish, takliflar berish;

Kengash a’zoligiga saylash va uning tarkibidan chiqarish haqida taklif qilish;

Kengash raisiga navbatdan tashqari yig‘ilish chaqirish haqida taklif kiritish.

3.2. Kengash vakolatlari va asosiy vazifalari:

Kengash Talabalar akademiyasi faoliyatiga oid asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ish olib boradi. Jumladan:

Talabalar akademiyasi a’zolarini Talabalar akademiyasi jamoalariga saralash;

Talabalar akademiyasi a’zolari tomonidan ovoz berish orqali tanlangan vitse-prezidentlar nomzodini tasdiqlash;

Ushbu Nizomda belgilangan Talabalar akademiyasining asosiy vazifalari va funksiyalarini bajarilishiga ko‘maklashish;

4-bob. Talabalar akademiyasining a’zoliliga qabul qilish

4.1. Talabalar akademiyasiga talabalar va magistrantlarni a’zolikka quyidagi mezonlar asosida qabul qilinadi:

№	Mezonlar	Mezon shartlari va ball taqsimoti	100 ball
1.	Fanlarni o‘zlashtirish darajasi	Talabaning 1-bosqichdan boshlab olgan ballari hisobga olinadi. 90-100 - 10 ball 80-89 - 8 ball 70-79 - 6 ball 56-69 - 4 ball	10
2.	Ilmiy-tadqiqot ishi doirasida chiqarilgan tezis va maqolalari	Soha yo‘nalishiga mos va muayyan o‘quv yilida chop etilgan bo‘lishi kerak.	10

	(respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar)	1 ta respublika miqyosidagi konferensiyada-2,5 ball 1 ta xalqaro miqyosidagi konferensiyada-2,5 ball	
3.	Ilmiy-tadqiqot ishi doirasida chiqarilgan ilmiy maqolalari (respublika va xalqaro ilmiy jurnallar)	Soha yo‘nalishiga mos va <i>muayyan</i> o‘quv yilida chop etilgan bo‘lishi kerak 1 ta respublika miqyosidagi jurnalda-5 ball 1 ta xalqaro miqyosidagi jurnalda-5 ball	10
4.	Ilmiy-tadqiqot ishi doirasida chiqarilgan monografiya, o‘quv, uslubiy qo‘llanmasi	Soha yo‘nalishiga mos va talabalik davrida chop etilgan bo‘lishi kerak Monografiya-5 ball O‘quv, uslubiy qo‘llanma-5 ball	10
5.	Respublika va xalqaro olimpiadalarda erishgan yutuqlari (diplom)	Soha yo‘nalishiga mos talabalik davrida erishgan yutuqlari Respublika miqyosida-1-o‘rin (3 ball), 2- o‘rin (2 ball), 3-o‘rin (1 ball) Xalqaro miqyosida-1-o‘rin (3 ball), 2-o‘rin (2 ball), 3-o‘rin (1 ball)	10
6.	Xorijiy tillarni bilish darajasi (sertifikat)	Ingliz, nemis, fransuz, ispan, xitoy, arab, koreys, yapon, turk, Italian tillari B2 (6 ball), C1 (8 ball), C2 (10 ball) (amal qilish muddatiga e’tibor qaratiladi)	10
7.	Axborot texnologiyalari sohasidagi erishgan yutuqlari (sertifikat)	Talabalik davrida 1 ta dasturlash bo‘yicha sertifikatga ega bo‘lsa-2,5 ball	10
8.	Republika va xalqaro tanlovlarda erishgan yutuqlari (sertifikat va diplom)	Talabalik davrida Respublika miqyosida-1-o‘rin (3 ball), 2- o‘rin (2 ball), 3-o‘rin (1 ball) Xalqaro miqyosida-1-o‘rin (3 ball), 2-o‘rin (2 ball), 3-o‘rin (1 ball)	10
9.	Innovatsion yechimlar va ishlanmalar, startap loyihibalarini yaratishdagi faol ishtiroki (sertifikat, diplom, guvohnoma)	Talabalik davrida sertifikat-2 ball, diplom-4 ball, guvohnoma-6 ball	10
10.	Ijodiy yutuqlari	Soha yo‘nalishiga mos va <i>muayyan</i>	10

		o‘quv yilida chop etilgan bo‘lishi kerak gazetadagi chiqishlar-4 ball, to‘plamda-6 ball.	
--	--	------------------------------------------------------------------------------------------	--

Ilimiy-tadqiqot ishlari, erishilgan natijalarning talabgor tahsil olayotgan ta’lim yo‘nalishiga mosligiga, ilmiy ishlari, yutuqlar, natijalarning aynan talabaning muayyan o‘quv bosqichi davrida erishilganligiga, ilmiy-tadqiqot ishlarining yakka mualliflikda (agar hammualliflikda bo‘lsa ballar mualliflar soniga bo‘linadi) hamda nufuzli nashrlarda chop etilganligiga alohida e’tibor qaratiladi va ustuvorlik beriladi.

4.2. Talabalar akademiyasiga talabalar va magistrantlarni saralash bosqichlari:

Talabalar akademiyasiga a’zolarning saralashni **birinchi bosqichi** fakultetlarda mustaxassislik yo‘nalishlari kesimida o‘tkaziladi.

Fakultetda dekan va mutaxassislik kafedralari mudirlari, dekan o‘rinbosarlari, tajribali professor-o‘qituvchilardan iborat tarkibda ishchi guruhi shakllantiriladi;

Ishchi guruh har bir ta’lim yo‘nalishi, kurslari kesimida iqtidorli talabalarning faoliyatini baholaydi;

Fakultet bosqichida mutaxassislik kafederalar tomonidan “Ustoz-shogird” tizimli ravishda ishlab kelayotgan iqtidorli talabalar qatnashadi;

A’zolikka tavsiya etiladigan talaba yoki magistrantlar JDPU Iqtidorli talabalar elektron platformasidan ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi kerak.

Elektron ro‘yxatdan o‘tgan talaba yoki magistrantlar fakultetlar kesimida to‘planadi va fakultetlardi ishchi guruhlarga Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi tomonidan beriladi;

Har bir ta’lim yo‘nalishidan kurslar kesimida kamida bittadan talaba saralanib olinadi;

Fakultet bosqichida Ishchi guruh tomonidan talabalarni saralash Talabalar akademiyasiga “Talabalar va magistrantlarni a’zolikka qabul qilish mezonlari” bo‘yicha baholanadi;

Har bir yo‘nalish va kurslar kesimida saralangan talabalar ro‘yxati fakultet Kengashi qarori bilan Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limiga taqdim etiladi.

Ikkinci bosqichda Talabalar akademiyasi a’zolarini Talabalar akademiyasi jamoalaridan biriga o‘tkaziladi.

Bunda Talabalar akademiyasi a’zolari o‘rtasida Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi tomonidan maxsus so‘rovnomaga

o‘tkaziladi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra Talabalar akademiyasi a’zolari to‘rtta jamoadan biriga tavsiya etiladi.

So‘rovnoma natijalari Talabalar akademiyasi Kengashi va a’zolari o‘rtasida ochiq muhokamaga qo‘yiladi. Muhokama natijalari maqbulligi ko‘pchilik ovoz bilan ochiq ovoz berish usuli bilan tasdiqlansa, ular Talabalar akademiyasi Kengashi tomonidan bayonnomma asosida Talabalar akademiyasining quyidagi jamoadan biriga o‘tkaziladi:

“G‘oyalar generatorlari” – Talabalar akademiyasining asosiy yo‘nalishlariga tegishli bo‘lgan ma’lum bir muammoning yechimiga qaratilgan innovatsion g‘oyaga ega jamoa;

“Bo‘lajak akademiklar” – mamlakatning ilm-fan rivojlanishiga katta hissa qo‘shayotgan yuqori va ilmiy salohiyatga ega yosh olimlar jamoasi;

“Startaplar” – o‘z g‘oyasi bo‘lgan va ushbu g‘oyani amalga oshirishga qaratilgan startap loyihalari va ularni amalga oshirish bo‘yicha aniq rejaga ega jamoa;

“Biznes vakillari” – faoliyatida ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini qo‘llagan va tegishli sohada kamida 1 yillik tajribaga ega bo‘lgan talabalar jamoa.

Talabalar akademiyasi jamoalariga a’zolik muddati 1 yil.

Talabalar akademiyasining a’zolari bir vaqtning o‘zida bir nechta jamoa a’zosi bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.

4.3. Talabalar akademiyasi a’zolari muayan jamoa a’zoligidan boshqa jamoa a’zoligiga quyidagi hollarda o‘tishlari mumkin:

muayyan jamoa bilan birgalikda amalga oshirayotgan loyihasini yakunlagach; muayyan jamoaga a’zolik muddati tugaganida;

a’zo bo‘lib turgan jamoada amalga oshiriyotgan g‘oyasi yoki loyihasi bo‘lmasanida va boshqa jamoaga oid g‘oya yoki loyihasi ro‘yxatga olingan taqdirda.

4.4. Talabalar akademiyasi platformalarining vazifalari:

“G‘oyalar generatorlari” jamoasi:

Turli sohalardagi mavjud global va mintaqaviy muammolarni o‘rganish va tahlil qilish;

O‘rganilgan muammolarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish;

Ishlab chiqilgan innovatsion yechimlar yuzasidan “Bo‘lajak akademiklar” jamoasiga taklif kiritish;

“Bo‘lajak akademiklar” jamoasi:

O‘rganilgan muammolarga berilgan innovatsion yechimlarni ilmiy tahlil qilish;

SWOT tahlili asosida loyihaning afzallikkari va kamchiliklari hamda imkoniyatlarini aniq ko‘rsatib berish;

Talab etilgan innovatsion yechimlarni STEAM laborotoriyalarida sinovdan o‘tkazish;

“Startaplar” jamoasi:

Amaliy, innovatsion va startap-loyihalarni ishlab chiqish;

Loyiha uchun marketing strategiyasini ishlab chiqish;

Loyiha uchun ishlab chiqarish va logistika dasturini tayyorlash;

Loyihaning xarajatlar smetasini ishlab chiqish;

Turli loyiha tanlovlardida ishtirok etish;

“Biznes vakillari” jamoasi:

Loyihaning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini o‘rganish, marketing tahlilini o‘tkazish;

Loyihani moliyalashtirish uchun investorlarga taqdim etish;

Amaliy, innovatsion va startap-loyihalarning natijalari asosida tayyorlangan innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish;

4.5. Talabalar akademiyasi a’zoligidan chiqarish tartibi

Talabalar akademiyasi a’zosi maqomidan mahrum qilishga Talabalar akademiyasi Kengashi qaroriga, shu jumladan, akademiya a’zosi tomonidan muayyan jamoaga a’zolik bo‘yicha shartlar va talablar bajarilmagan taqdirda Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi xulosasiga ko‘ra, shuningdek ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi.

5-bob. Talabalar akademiyasining boshqaruvi va tuzilmasi

5.1. Talabalar akademiyasi Prezidenti vazifasini Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori bajaradi.

5.2. Talabalar akademiyasi Prezidenti:

Talabalar akademiyasiga umumiylar rahbarlikni amalga oshiradi hamda Talabalar akademiyasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi nazorat qiladi;

Talabalar akademiyasiga, vitse-prezidentlar va a’zolarni tanlab olish jarayonini boshqaradi;

Talabalar akademiyasining yillik va istiqboldagi ish rejalarini tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

Turli tashkilotlarda hamkorlik masalalarida Talabalar akademiyasi nomidan vakillik qiladi;

5.3. Talabalar akademiyasi Prezidentiga o‘rinbosar sifatida to‘rtta vitse-prezident faoliyat yuritadi. Vitse-prezident Talabalar akademiyasi jamoalari a’zolari orasidan ishchi guruh tomonidan tavsiya etiladi va ochiq ovoz berish orqali saylanadi hamda Talabalar akademiyasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

5.4. Talabalar akademiyasi vitse-prezidenti:

Talabalar akademiyasining to‘rtta vitse-prezidenti mavjud to‘rtta jamoaga boshchilik qiladi;

Talabalar akademiyasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning jamoalar kesimida bajarilishi uchun mas’ul hisoblanadi;

Talabalar akademiyasining yillik va istiqboldagi ish rejalarini ishlab chiqishda qatnashadi, tasdiqlangan rejalarning o‘z jamoasida bajarilishini ta’minlaydi;

Talabalar akademiyasining jamoasi faoliyati yuzasidan Talabalar akademiyasi Kengashiga hisobot beradi.

5.5. Talabalar akademiyasi a’zolari:

O‘zining innovatsion g‘oyalari va qarashlari asosida Talabalar akademiyasi jamoalaridan biriga a’zo bo‘lishi talab etiladi;

Jamoada vitse-prezidentini saylashda ishtirok etadi;

Jamoada vitse-prezident tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi;

Jamoa faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar beradi;

Turli tanlovlarda jamoa tarkibida ishtirok etadi;

Universitet stipendiyalari tanlovida va boshqa turdagи tanlovlarda yakka tartibda ishtirok etishi mumkin.

5.6.Talabalar akademiyasining ishchi guruhi Jizzax davlat pedagogika universitetining Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi hisoblanadi.

Ishchi guruh:

Talabalar akademiyasining yillik va istiqboldagi ish rejalarini ishlab chiqadi va bajarilishi monitoringini yuritadi;

Talabalar akademiyasiga a’zolarni tanlab olish jarayonini tashkillashtiradi;


Iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

6.1. Talabalar akademiyasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.2. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Talabalar akademiyasining boshqaruvi va tuzilmasi



Nizomni shakllantirishda ishtirokchilar:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor:

G'.Qodirov

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot
faoliyatini tashkl etish bo'limi boshlig'i:

D.Fazilova

Katta yuriskonsult:

A.Aliqulov